

AN'ANAVIY VA RASMIY MOTIVLI URBANONIMLARNING ANTROPOSENTRIK TADQIQI

Murodbek Matnazarov,

Urganch innovatsion universiteti

O'zbek va xorijiy filologiya kafedrasi dotsent v.b., PhD

E-mail: matnazarov.murodbek@bk.ru

[orcid 0009-0000-9625-044X](https://orcid.org/0009-0000-9625-044X)

Annotatsiya. Ushbu maqolada an'anaviy va rasmiy motivli urbanonimlarning nomlanish xususiyatlari, hududda tarqalgan urbanonimlarning tiplari va alohida semantik guruhlariga mansub nomlarning shakllanish motivlari kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: an'anaviy urbanonim, rasmiy urbanonim, oronim, fitonim, gidronim, antroponim, oykonim, mikrotoponim.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития топонимии в узбекском языкознании, особенности номинации urbanonimov, виды urbanonimov в регионе и мотивы образования названий, принадлежащих к конкретным семантическим группам, взаимосвязь региональных urbanonimov.

Ключевые слова: urbanonim, oronim, fitonim, gidronim, antroponim, oykonim, mikrotoponim.

Abstract. This article discusses the development of toponymy in Uzbek linguistics, the naming features of urbanonyms, types of urbanonyms in the region and the motives for the formation of names belonging to specific semantic groups, the relationship of regional urbanonyms.

Keywords: urbanonym, oronym, phytonym, hydronym, anthroponym, oykonim, microtoponym.

Kirish. Urbanonimik birliklarning nomlanishida jamiyatning tutgan o'rnini aniqlash uchun ularni tiplarga ajratish va shu asosda tasniflash asosiy o'rin tutadi. Mustaqillik Urganch shahri urbanonimiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Joy nomlari, ayniqsa, fuqarolar yig'inlari, mahallalar, guzarlar, ko'chalar nomlari istiqloq g'oyalari, milliy mentalitet nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqildi hamda nomlarga zamonaviy ruh berildi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon va o'zbek tilshunosligida urbanonimlarni tasnif qilish masalasi anchadan buyon kun tartibiga qo'yilib kelingan hamda turlicha fikrlar o'rta tashlangan bo'lib, asosiy e'tibor o'zbek tilshunosligida yuzaga kelgan tasniflarga qaratilgan. Jumladan, S.Qorayev, Z.Do'simov, E.Begmatov, S.Naimov, T.Nafasov, L.Karimova, N.Oxunov, K.Yusupov, H.Sharipov, K.Nazarov, T.Enazarovlarning tasniflariga munosabat bildirilgan. S.Bo'riyevning "Urgut tumani urbanonimlarining leksik-semantik tahlili" nomli nomzodlik dissertatsiyasida toponimlarni tasniflash borasida mavjud bo'lgan qarashlar va tajribalar umumlashtirilib, o'zbekcha toponimlar tasnif qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda urbanonimlarni o'rganishda lingvistik tahlil, tasniflash va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, hududiy materiallar asosida urbanonimlarning semantik guruhlari aniqlanib, ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi ekstralingvistik omillar antropotsentrik yondashuv asosida tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Quyidagi kuzatishlarimizdan Urganch shahri urbanonimiyasi nomlanishlarida xalqning etnik xususiyatlari, viloyat hududining o'ziga xos jihatlari va landshafti ahamiyatli ekanligi ma'lum bo'ladi:

– ziyoratgoh va muqaddaslik mazmunini beruvchi nomlar: *Oxunbobo, Doshqinjonbobo* va h.k.

– kishi ismlari bilan aloqador nomlar: *Polvonning do'koni, Sopa ota do'koni, Sopa ota to'yxonasi, Ibodulla ota to'yxonasi. Amin mulla avtosaloni* va h.k.

– tarixiy nomlar asosida hosil qilingan urbanonimlar: *Ko'na qal'a mahallasi.*

obyektning relyefi, tashqi ko'rinishi va joylashish o'rnini anglatuvchi nomlar: *Yuqoribog' mahallasi* va h.k.

– atrofdagi asosiy obyektlardan ko'chgan nomlar: *Amudaryo ko'chasi, Shovot yopi* va h.k.

– obyektning tabiiy xususiyatiga yoki bir narsaning mavjudligiga nisbatan ishora qiluvchi nomlar: *Ko'na ko'pir, Go'k ko'pir, Baland ko'pir, Ko'na bozor* va h.k.

Nomlanishning aniq bir obyektga qaratilganligi, nomlanish jarayonida turli ekstralingvistik vaziyatlarning rol o'ynashi, toponimik yasalişning, garchi u o'zbek tili so'z yasaliş qonuniyatlaridan oziqlansa-da, o'z shakllanish usullarining ham mavjudligi, so'zning apellyativ holatdan onomastik holatga o'tishidagi sotsiolingvistik omillar, nomlarning saqlanishidagi turg'unlik va beqarorlik kabi holatlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Toponimlarning turg'unligi haqida qarashlarga, jumladan, B.A.Serebrennikovning: "Toponimik nomlar g'ayrioddiy turg'unlikka ega bo'ladi. Yer yuzida xalqlar va tillar yo'q bo'lib ketishi, toponimlar esa o'ziga xos atoqli otlar tarzida, geografik obyektlarning ifodasi sifatida boshqa xalqlar tomonidan oson o'zlashtirilishi va shu yo'llar bilan ming yillab saqlanishi mumkin", degan fikriga, A.V.Superanskayaning "Biz so'z ohangdorligi va mahalliy aholi tilidagi o'zgarishlar ta'sirida tovush qiyofasini almashtirgan nomlar va ma'lumotlar borligini bilamiz. Shunday ekan, ularning o'zgarimasligi haqidagi fikr nisbiydir", degan munozarali mulohazalarini aytib o'tishni lozim topdik.

Urbanonimlarning tranonimizatsiya jarayoni nomlanish motivlarini qayd etib borish hanuz taomilga kirmaganligi, xalq joyni nomladimi, uni shu nom bilan atab ketaverishi, vaqt o'ta borgani sayin nega shunday atalgani esa unutila borilib, uning o'rnini turli taxminlar, rivoyatlar, afsonalar egallashi, payti kelib esa uning etimologiyasini aniqlash tadqiqotchilarning zimmasiga tushishi, nomlash bilan bu nomni tadqiq etish orasidagi masofa uzayib, nomlanishning sababi va toponimlarning etimologiyasini aniqlash ham murakkablashib borishi muammo sifatida qaraladi. Shu sababga ko'ra toponimik ma'lumotlarni to'plash hamda tahlil etish ham ilmiy, ham ma'naviy jihatdan dolzarbligicha qolib kelayotganini ta'kidlash lozim.

Urganch shahri urbanonimlarini o'rganish jarayonida ularning nomlanish tamoyillari, lisoniy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi omillari, hududda tarqalgan urbanonimlarning

tiplari va alohida semantik guruhlarga mansub nomlarning shakllanish motivlari, hudud urbanonimlarining o'zaro munosabati va transonimizatsiyasi, turli tipdagi nomlarning statistik va areal tadqiqini amalga oshirish lozim bo'ladi.

Nomlanishning aniq bir obyektga qaratilganligi, nomlanish jarayonida turli ekstralingvistik vaziyatlarning rol o'ynashi, urbanonimik yasalishning, garchi u o'zbek tili so'z yasalishi qonuniyatlaridan oziqlansa-da, o'z shakllanish usullarining ham mavjudligi, so'zning apellyativ holatdan onomastik holatga o'tishidagi sotsiolingvistik omillar, nomlarning saqlanishidagi turg'unlik va beqarorlik kabi holatlar kuzatiladi.

Statistik ma'lumotlar geografik obyektlarning har to'rttadan bittasi antropourbanonim va topourbanonimlar ekanligini ko'rsatadi, Urganch shahri urbanonimlarining yuzaga kelishida antroponim, toponim kabi lingvistik elementlar muhim onomastik birliklar sifatida qatnashganligini ko'rish mumkin.

Urganch shahri urbanonimlarining lingvistik birlik sifatida yuzaga kelishida asosiy vosita ot leksemalar, jumladan, antroponimlar ekanligi ma'lum bo'ldi. Son jihatdan salmoqli o'rin egallagan bu elementlar hudud urbanonimlari miqdorining to'rttdan bir qismidir. Bu esa geografik obyektlarni ayrim kishilar nomi bilan atash Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida qadimdan an'ana ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ular asosan ko'cha, mahalla, masjid, bog', do'kon, korxonalar, firma, qabriston, yo'l, dam olish maskanlari, maishiy xizmat korxonalarini nomining shakllanishiga asos bo'lganligi qayd etilgan. Masalan, urbanonimlar sirasiga kiruvchi madaniy-maishiy obyektlarning negizida ham asosan antroponimlar yotadi: *Amir Temur xiyoboni, Al-Beruniy muzeyi, Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasi* kabi.

Shuningdek, urbanonimlar tarkibida son ma'nosini ifodalovchi so'zlar va numerativlarning kelishi ulardagi har ikki xususiyat – ham aniq son, ham umuman ko'plikni anglatishiga sabab bo'luvchi Qirg'iz (do'kon), *Ming bir mebel* (do'kon) va h.k; rang-tus, hajm-o'lchov, o'rin-joy, ko'lam-masofa ma'nolarini ifodalovchi elementlar *Ko'hna Urganch* (do'kon, hozir Magnit nomiga o'zgartirilgan) *Yangi Hayot* (mahalla) *Yuqori bog'* (mahalla) va h.k, shuningdek, *Qozoqovul* kabi etnonimlar asosida hosil bo'lgan urbanonimlarni hosil qiluvchi lingvistik omillar mavjud.

Xulosa. Kuzatishimizcha, Urganch shahri urbanonimlarining yuzaga kelishida *yangi, toza, yuqori, o'rta, ko'na (ko'hna), shirin* kabi belgi-xususiyat bildiruvchi maxsus so'zlar hududning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalash mohiyatiga ko'ra faol ishlatilganligini ko'rish mumkin.

Urbanonimlar xalq so'zlashuv nutqidagi leksemalar asosida ham yuzaga keladi. Bu toponimikaning o'zbek shevashunosligi bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatadi. Respublikamiz toponimiyasida shevaga xos so'zlar bilan atalgan joy nomlari birmuncha. Bularga Xorazm viloyati o'g'uz va qipchoq shevalarida uchrovchi arna (daryodan suv oluvchi kanal), yop (katta ariq), solma (kichik ariq), singari leksik dialektizmlar bilan

atalgan nomlarni kiritish mumkin: *Shovotarna, Qirg'izyop, O'risyop* kabi nomlar buning misolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Toshkent: Ўзбекистон, 1978.
2. Мурзаев Э.М. География в названиях. – М., 1979.
3. Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М.: Наука, 1985. – 176 с.
4. Мурзаев Э.М. География в названиях. – М., 1979.

